

O'Z KASBINING USTASI HAQIQIY ISTE'DOD MAKON VA ZAMON
TANLAMAYDI. BUNING ISBOTINI BIZ BA'ZI INSONLAR MISOLIDA
YAQQOL KO'RISHIMIZ MUMKIN.

Xaydarova Maxsuda

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani

24-umumiy o'rta ta'llim maktabi ona tili va adabiyoti o'qituvchisi




Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanining chekka bir qishlog'idagi 24-umumta'llim maktabida mas'uliyat, shijoat va fidoiylik bilan ish faoliyatini olib borayotgan, ustozlar va o'quvchilarning mehrini qozongan, yosh bo'lsa-da, katta yutuqlarga erishgan, samimiy hamda kamtarin o'qituvchi Xayrulla Jakbarovni faxr bilan tilga olish mumkin.

U mifik tabiiyotida tashabbuskorligi, mehnatsevarligi, xushmuomalaligi bilan ham e'tirofga loyiq. X. Jakbarov 24-maktabda 2019-yildan buyon jismoniy tarbiyadan dars bera boshlashi bilan ushbu darsni haqiqatda jonlantirdi. O'quvchilarning dars jarayonida va turli musobaqalarda erishgan natijalarida tub burilish yarata oldi. U darsni tartibli, mezonlarga tayangan holda namunali va sifatlari tashkil qila oldi. Natijada samarali mehnat ortidan ketma-ket yutuqlarga erisha boshladidi. Shuningdek, faxriy ustoz bo'lmish Abdughafur Abuhafur bilan birga "Ustoz-shogird" an'anasi ham namunali tarzda yo'lga qo'ydi. Yosh o'qituvchi Kurbonaliyev Xolmurod bilan esa hamkorlikda ishlab, ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Darslarni qat'iy intizom va tartib bilan shakllantirgan, shuningdek o'ziga ishonchi

baland o‘qituvchining ta’siri bevosita maktab o‘quvchilarining sportga qiziqishi ortishida va erishgan natijalarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Jumladan, Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanida "Umid nihollari "musobaqasining sportning Futbol turidan tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi.Tuman bosqichida X.Jakbarov shakllantirgan jamoa 1-o‘rinni egalladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3031 qarori ijrosini ta’minalash maqsadida O‘zbekistonda Jismoniy tarbiyani, ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida umumta’lim maktablari" Yoshlik "sport janوالاري o‘rtasida Futbol bo‘yicha "Futbolimiz kelajagi" sport musobaqasida Viloyat final bosqichida ushbu maktab jamoasi 1-o‘rinni egalladi va Respublika final bosqichiga yo’llanmani qo‘lga kiritdi hamda Respublika bosqichida oddiy maktab



jamoasi faxrli 2-o‘ringa loyiq deb topildi.

Bundan tashqari boshqa sport turlarida, jumladan, basketbol, volleybol, stol tennisi, badminton sport turlarida ham munosib qatnashib kelishmoqda.

Shu bilan birga, uning shaxsiy yutuqlari ham talaygina. Yangiyo‘l tumani “Sportni sev, sport bilan yasha” shiori ostidagi ommaviy sport festivalida sportning stol tennisi boyicha X.Jakbarov faxrli 1-o‘rinni egallagan. 2022-yil o’tkazilgan “Besh tashabbus olimpiadasi doirasi”dagi tashkil etilgan sportning stol tennisi turi bo‘yicha 1-o‘rin, futbol musobaqasidagi ishtiroki uchun “Eng yaxshi hujumchi” kabi natijalarga ham erishdi. X.Jakbarov O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining “Sport ustasi” unvoniga ham ega.

Shijoatli va g‘ayratli murabbiyning tinimsiz sa'y- harakatlari, intilishlari oz fursatda ko‘plab zafarlar quchgani barchani xushnud etmoqda. Kelajagimiz egalarining ham ma’nani, ham jismonan sog‘lom bo‘lishiga bor kuchini sarflaydigan fidoyi ustozlarimizni qadrlash- har birimizning burchimizdir. Bu e’tibor ularga yanada kuch va g‘ayrat bag‘ishlashi, kelgusida yuqori marralarni zabt etishida qanot bo‘lishi, shubhasizdir.

